


## Humans 2023-yildagi moliyaviy va operasion natijalarni taqdim etdi — kompaniyalar guruhining umumiyl tushumi deyarli \$42 millionni tashkil qildi

*Humans kompaniyalar guruhi 2023-yildagi yakuniy hisobotni taqdim etdi. Ekotizim barcha eng muhim ko'rsatkichlar, jumladan tushum, oborot va faol foydalanuvchilar soni bo'yicha o'sishni qayd etdi. Keyingi ikki yil davomidagi yillik o'rtacha o'sish sur'ati deyarli 30%ni tashkil qildi.*



**2024-yil 22-yanvar, Toshkent shahri.** — Humans kompaniyalar guruhi 2023-yilning moliyaviy va operasion yakunlarini e'lon qildi. Kompaniyaning umumiyl tushumi \$41,7 millionni tashkil qildi, ekotizim uch yil davomida jami \$114 million ishlab topdi. Oxirgi ikki yil mobaynida sof foyda o'sishining yillik o'rtacha sur'ati, xuddi shu davrga nisbatan — 285,9% bo'ldi. Humans kompaniyalari guruhining oboroti 2023-yilda \$984,2 millionga yetdi, shundan faqat dekabrdagisi \$124,5 million bo'ldi.

Superapp Humans, bu — aloqa xizmatlari, Humans VIZA bank kartasi, to'lovlar va o'tkazmalar, jumladan transchegaraviy to'lovlar va o'tkazmalar servisini, shuningdek, keshbek dasturni birlashtirigan yagona ilovadir. Hisobotga ko'ra, deyarli 1,1 million mijozlar Humans superappidagi kamida ikkita servisdan bir vaqtning o'zida foydalanishmoqda. Superapp noyob faol foydalanuvchilarining soni haftasiga 730 ming kishini tashkil qilmoqda. Bunda, ayniqsa, fintex yo'nalish tez sur'atlarda o'sayapti — keyingi ikki yilda bir mijozga nisbatan tushum o'sishining yillik o'rtacha sur'ati bu segmentda 94,4%ni tashkil qildi.

Humans — hozircha O'zbekistonda moliyaviy va telekom xizmatlarini birlashtiuvchi superapp asosida ekotizim tuzgan yagona kompaniyadir. Kompaniya eng muhim operatsiyalar hajmi va foydalanuvchilarning umumiyligi faolligini kengaytirib borishda davom etmoqda. Misol uchun, bugungi kunda telekom servislardan foydalanuvchilarning soni 1,4 million nafarni tashkil qildi, shundan 1 milliondan ortig'i uyali aloqa operatorining xizmatlar paketidan foydalanadi. Muntazam ravishda S2S o'tkazmalar va to'lovlardan foydalanayotgan mijozlar soni 2023-yil oxiriga kelib 801 ming kishini tashkil qildi, fintex yo'nalishdagi mijozlar soi o'sishining yillik o'rtacha sur'ati ikki yil ichida 37,4%ni tashkil qildi. Humans VIZA faollashtirilgan bank kartalari sonining o'sish sur'ati, taqqoslanganda — 2021 yildan 2023 yilgacha har yili 35,6% ortdi.

### **Sof tushumning o'sishi**

Humans kompaniyalarining sof tushumi yildan yilga muntazam ortib borishni ko'rsatmoqda. Misol uchun, 2021-yilda bu 247,2 milliard so'mni, 2022-yilda — 364,7 milliard, 2023-yilda esa — 407,3 mlrd so'mni ko'rsatdi. Bunda o'sishning jami yillik o'rtacha sur'ati deyarli 30%ga yetdi.

### **Mijozlar ekotizimga qo'shilishmoqda**

Superapp mijozlari bir vaqtning o'zida Humansning bir nechta servislardan tobora ko'proq foydalanishmoqda, kompaniyaning biznesidagi fintex xizmatlardan foydalanuvchilar hisssasi muntazam ravishda ko'payib borayapti. 2021-yilda 30 kun davomida faol bo'lgan mijozlarning 98%dan ko'prog'i faqat aloqa xizmatlaridan foydalanishgan, 2023-yilda esa bu hissa 87,7%gacha qisqargan. Bunda har bir telekom xizmatlar mijoziga nisbatan tushum o'sishining yillik o'rtacha ko'rsatkichi 10%gacha ortgan.

Lekin o'sishning asosiy drayveri kompaniyaning fintex xizmatlari - ilova orqali, shuningdek, Humans VIZA kartasi bo'yicha o'tkazmalar va to'lovlar bo'ldi. 2021-yilda servislardan superapp mijozlarining atigi 15,4% foydalangan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich 40,2%ni tashkil qildi. Bunda ko'pchiligi — 40%dan 27,9% — bir vaqtning o'zida ham telekom, ham fintex servislardan foydalanadi.

Umuman, Humans mijozlari superappdagagi bir necha servislarni tobora tez-tez birlashtirishmoqda. Misol uchun, 2022 yilda 782 ming nafar mijoz, 2023-yilda esa deyarli 1,1 million mijozlar xizmatlarning kamida ikki turidan foydalangan, ya'ni o'sish yiliga 40%dan ortiqni tashkil qilgan.

### **Innovasiyalar va mijozlarga xizmat ko'rsatish**

Humans superappidan millionlab mijozlar foydalanishadi. Bunday faoliykda sifatli qo'llab-quvvatlashni ta'minlash muhim, shuning uchun hali ishning boshlanishidayoq, menejment yangi texnologiyalar va mijozlar servisidagi metodikaga urg'u bergandi. Misol uchun, dastlabki so'rovlarning katta qismini sun'iy aql (SA) asosidagi tizim ishlovga oladi — har oyda murojaatlarning taxminan 80% shu orqali o'tadi. Bunda mijoz muammolarining aksariyati tez hal qilinadi: 92% holatlarda telefon orqali birinchi marta va 80% holatlarda - chatda mulqotga kirishilganda.



«O'tgan 2023 yil ko'p jihatdan Humans uchun belgilab beruvchi yil bo'ldi. Biz ekotizim tuzish strategiyamiz ish berayotganiga ishonch hosil qildik — tobora ko'proq mijozlar biryo'la superapp ichidagi bir nechta servislardan foydalanishmoqda. Tushum, oborot, tranzaksiyalar va mijozlar faolligining muntazam ortib borishi O'zbekiston bozori superapplar uchun butunlay yetishib bo'lganligi va mijozlar ekotizimning usutnliklarini tushunib yetayotganligini tasdiqlamoqda. Pandemiya vaqtidagi girdobsimon vaziyat va qiyin boshlanishga qaramay, o'tgan uch yil davomida Humans mintaqada barqaror biznes qurishga erisha oldi.

Ishonchim komilki, kompaniyaning rivojlanishi bundan buyon ham davom etadi — biz ekotizimimizdagi xizmatlar spektrini kengaytiramiz, ko'proq mijozlarni jalb qilamiz va moliyaviy ko'rsatkichlarning yanada ishonchli o'sishiga erishamiz. Lekin bizning bosh vazifamiz bu bilan cheklanib qolmaydi. Humans jamoasining vazifalari — moliyaviy savodxonlikni oshirish, mamlakatda raqamli iqtisodni rivojlantirish, O'zbekistonning barcha mintaqalarida raqamli tengsizlikni tugatish, yoshi, ijtimoiy maqomi va yashash joyidan qat'i nazar, respublika aholisiga raqamli servislar - bepul aloqadan tortib, tovarlarni tez yetkazib berishgacha qulay va bepul erishish imkonini yaratishdir», — **deb ta'kidladi SEO va Humans Group asoschisi Vladimir Dobrinin.**

---

Humans.uz — moliyaviy servislar, uyali aloqa xizmatlari va tovar marketpleysini birlashtirgan superapp. Loyiha O'zbekis tonda 2020-yilda xodimlar qidirish bo'yicha AQSHdagi Humans.net platformasini rivojlantirayotgan Humans Group doirasida ishga tushirilgan. Guruhning ofislari AQSH, O'zbekiston, Polsha, Singapur va Germaniyada joylashgan.

Matbuot xizmati: [pr@humans.net](mailto:pr@humans.net)